



MTTDA TO'GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISH

Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Ergasheva Nargiza G'ulomovna

Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11101743>

Annotatsiya

Maqola “**MTTda to'garak ishlarini tashkil etish**” mavzusida tayyorlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'garaklarni tashkil etishning pedagogik asoslari, bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda to'garaklarning ahamiyati, MTTda bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Bundan tashqari ushbu maqolada mustaqil badiiy faoliyat orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmuni bayon etilgan.

Аннотация

Подготовлена статья на тему “**Организация кружковой работы в ДОУ**”, в которой освещены педагогические основы организации кружков в ДОУ, значение кружков в формировании творческих способностей детей, особенности обучения детей творческой деятельности в ДОУ.

Кроме того, в данной статье изложено содержание развития творческих навыков у дошкольников через самостоятельную художественную деятельность.

Annotation

The article was prepared on the topic “**Organization of Circle work in the OPE**”, highlighting the pedagogical foundations of the organization of circles in preschool educational organizations, the importance of circles in the formation of children's creative abilities, the peculiarities of teaching children to creative activities in the MTT.

In addition, this article describes the content of the development of creativity skills in preschool children through independent artistic activities.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda.





Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim davridanoq bolalarni har jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazish davlat siyosati darajasidagi muhim masaladir.

Ma'lumki, 2014-yilning "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-2133-son qarori qabul qilingan edi. Ushbu "Sog'lom bola yili" davlat dasturining 106-bandi ijrosi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yo'nalishlarda ijodiy to'garaklarni tashkil etish belgilangan. Bularga sport va sog'lomlashtirish to'garaklari, horijiy tillar to'garaklari, musiqa va raqs to'garaklari, "Bolalar ijodi" to'garaklari, qiz bolalar uchun alohida "Zumradoylar davrasi" kabi to'garaklarning tashkil etilishi misol bo'la oladi.

Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarni turli to'garaklarda shug'ullantirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini o'sishi, dunyoqarashini shakllanishi, ijobiy xulq-atvor odatlarini o'zlashtirilishi rivojlanishiga erishiladi.

ASOSIY QISM

Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tarbiyachilar yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar bolalar bilan turli xil ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar to'garak ishlari deb ataladi. To'garaklar MTTda bolalarni tarbiyalash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ishlardan bolalar shaxsini kamol toptirish maqsadida keng foydalaniladi.

To'garaklar maxsus tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya va madaniy ishlardan iboratdir. Bularga bolalar badiiy ijod to'garaklari, sport to'garaklari, ilmiy to'garaklar kabilar kiradi.

To'garakdagi ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bu muammolarni ijobiy hal qilish uchun to'garakdagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash;
- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- pedagoglar va bolalar orasidagi o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish.





Bolalarning to'garakdagi ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki mashg'ulotdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

Ilmiy to'garaklar – ularning asosiy maqsadi to'garak a'zolarining ma'lum o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlariga tayangan holda, ular bilimni kengaytirish, chuqurlashtirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil ishlarni o'rgatish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Sport to'garaklari. Jismoniy tarbiya sportlarining turlari juda ko'p. Ularning maqsadi bolalarni jismoniy chiniqtirish, sog'ligini muhofaza qilish, sohalar bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnat va Vatan mudofaasiga amaliy tayyorlashdan iborat.

Badiiy to'garaklar – adabiyot, musiqa, drama, tasviriy san'at kabilar bolalar o'rtasida badiiy havaskorlikni o'stirish, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashdan iborat.

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb muammosidir. Chunki voqeligimiz yoshlarda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni, faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi. Biz bolalarimizda aql-idrokni, o'tkir zehni, tashabbusni, tadbirkorlik va fantaziyani tarbiyalamog'imiz kerak.

Ijodkorlik insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning obyektiv qonunlari asosida inson maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli - bu inson ongining faol mahsulidir. Ijodkorlik fan, texnika va san'atning turli sohalarida namoyon bo'ladi.

Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomik-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'laligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6-7 yashar bolalarda ko'rish va sezish idroki yetarli darajada rivojlanishini ko'rsatadi.

Kattalarning tegishli yo'lga solishi bilan kichkintoy predmetning barcha asosiy sifatlarini: shakli, mutanosibligi, rangi, tarkibiy qismlarini, shuningdek, fazodagi o'rnini idrok eta oladi.

Bolalar idrokining ko'lamiga analizatorlarning rivojlanish darajasidan tashqari kuzatilayotgan obyektga qiziqish ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, bolalar 6-7 yoshga yetgach, tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Bu esa o'z navbatida ancha uzoq kuzatish ishlari olib borish imkonini beradi. Bolaning xotirasi uning yoshi ulg'aygan sari rivojlanib boradi. Lekin psixologik





eksperimentlar bog'cha bolalarining eslab qolish jarayoni asosan beixtiyor bo'ladi.

«**Bolalar ijodkorligi**» atamasi hozir katta guruhdagi bolalarga nisbatan qo'llanadi; 2-5 yashar bolalarga loy va plastilindan turli narsalar, o'yinchoqlar yasash jarayonida tegishli pedagogik rahbarlik qilib borilsa, ularda ham yaratilayotgan obrazning ifodaligini oshiradigan elementlarni qidirib topish istagi paydo bo'ladi. Bu esa mazkur yoshdagi bolalar uchun ham ijodiy imkoniyatlarni rivojlantiradigan vazifalar doirasini belgilab olish imkonini beradi.

Tadqiqotlar 6-7 yashar bolalarda ko'ra ish va asosiy sifatlarini shakli, mutanosibligi, rangi, tarkibiy qismlarini shuningdek, fazodagi o'rnini idrok eta oladi. Ma'lumki bolalar 6-7 yoshga yetkach, tevarak atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Tafakkur jarayonlari rivojlanishi bilan bola predmetlarni ifodali tasvirlay oladigan bo'ladi.

Bolalar bo'sh vaqtlarida loydan, plastilindan narsalar yasashni yaxshi ko'radilar. Ular odamlar, hayvonlar, ertak qahramonlarini loydan yasaydilar. Ayniqsa, jamoa bo'lib narsalar yasash katta o'rin tutadi. Bolalar guruhlarga birlashib mavzular asosida o'yinchoqlar yasaydilar. M: «O'rmon hayvonlari», idish-tovoqlar kabilar. Bolalar geometrik shakllarni qirqib yopishtiradilar, qor parchalari, qog'ozdan qirqilgan qog'irchoqlar uchun ko'ylaklar va hokazo. Bolalar jamoa bo'lib applikatsiya ishlarini bajaradilar. Bolalar ishlarining mazmunini maktabgacha ta'lim muassasasi hayotidan yoki ularni o'rab turgan yaqin hayotdan, atrofdan olishi mumkin. Qurish-yasashda esa bolalar katta va mayda qurilish detallaridan foydalanadilar: garaj, uylar, mashinalar quradilar. Qog'ozdan guruh xonasi uchun o'yinchoqlar yasaladi.

Bolalar qurilmalar qurish jarayonida o'z qurilmalarini boshqatdan ko'rib, o'zgartirib turli xil detallar bilan boyitib boradilar, shuning uchun bolalarning juda qiziqib qurayotgan ishlari bir necha kun mobaynida saqlanishi zarur. Kichik guruhlarda esa tarbiyachi bolalarga nimalar qurishga o'rganganligini o'zi eslatadi, o'zi bolalar o'rnida ishtirok etadi va qurilmalarni qurish jarayonida birgalikda yordamlashadi va o'z vaqtida maydonchaga qurilish materiallarining to'plamini olib chiqadi, bolalar stol ustida turli xil qurilmalar quradilar, ular bilan o'yin o'ynaydilar. Qo'l mehnati burchagida xilma xil materiallardan karton, yelim, qog'oz, qutichalar va tabiat materiallaridan saqlanadi. Katta yoshdagi bolalar tarbiyachining rahbarligi ostida mashg'ulotda olgan bilim va malakalari ostida, o'yin uchun kerakli o'yinchoqlar yasaydilar. Tarbiyachi bolalarga maslahatlar beradi, qiynalishsa ko'rsatib beradi. Ba'zida tarbiyachining o'zi





o'yinchoq yasaydi, ammo albatta bularni bu ishga jalb etadi. Masalan: qaysidir qismini yopishtirishni yoki kerakli qismlarni tanlab olishni taklif etishi mumkin. Ba'zida tarbiyachi mashg'ulotdan ikki-uch kun oldin, bolalar yasashi lozim bo'lgan narsani bolalar ishtirokida yasab, ikki uch kun burchakda saqlashi mumkin. Tabiat materiallari bilan ham barglar, shoxlar, o'simlik urug'lari bilan ishlashadi. So'ng ularni sayr yoki ekskursiyada kuzatadi, bolalar ularni yig'adilar va tarbiyachi ulardan qanday qilib o'yinchoq yasash kerakligini ko'rsatib beradi. Misol: shishkalardan tipratikan, baliq va boshqalar yasaydilar. Tarbiyachi bolalardan bu materiallardan nimalar qilish mumkinligini so'rab, ulardan fantaziyani faolligini o'stirib boradi.

Kichik va o'rta guruh bolalari ham mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda rasm chizish, loydan buyumlar yasashga qiziqishi uyg'onib boradi. Ular turli xil sodda ko'rinisdagi rasmlar chizishga va o'rta guruh turli xil figuralarni rangli qog'ozdan qirqadilar. Tarbiyachi ularni qiziqishlarini o'stirib, rangli qog'ozdan chiptalar, cheklar qirqishni tavsiya etish mumkin. Tasviriy faoliyatga pedagogik rahbarlik qilish mashg'ulotdan tashqari vaqtda asta-sekin o'zgarib boradi. Ya'ni, harakatlarni ko'rsatib berishdan mustaqillikga o'tish, material tanlashda yoki o'z rejasini o'ylagan maqsadini tasvirlashda ham. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tasviriy faoliyatni ishning yordamchi shakliga aylantirib yuborish kerak emas. Shuningdek, tarbiyachi shuni esda tutmog'i lozimki, mashg'ulotdan tashqari tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish hamma uchun majburiy emas, u bilan kim chizishini, loydan narsa yasashni, qirqishni yaxshi ko'rgan bolalar shug'ullanishi mumkin. Bolalar tasviriy faoliyat bilan mashg'ulotdan tashqari vaqtda 10-15 minut davomida shug'ullanib, o'z rasmlarini, loy va applikatsiyani tugatishlarini yoki uni keyingi kunda ham davom ettirib, tugatishlari mumkin. Bu faoliyatga rahbarlik qilish tarbiyachidan juda katta sezgirlikni, diqqatni va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'sishi uchun sharoit yaratib berishni talab etadi.

Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatlari burchagining jihozlari va materiallari. Bolalarning to'garakda tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Bu maqsadda xonaning yaxshi yoritilgan joyi ajratilishi kerak. Xonaning deraza oldi ajratilishi maqsadga muvofiq, u yerda ikki-uch stol qo'yiladi. Agar deraza tokchalari past bo'lsa, ularga taxtalar mustahkamlanadi, bolalar shug'ullanmayotgan paytda ularni tushurib qo'yish mumkin. Rasm solish, narsalar yasash, applikatsiyalar uchun mo'ljallangan buyumlar yaqin turgan shkafning ochiq tokchalarida, stollarda turishi kerak. Kichik guruhda bolalarga erkin foydalanishlari uchun faqat rangli qalamlar beriladi. Katta guruh bolalariga (ayrim cheklanishlar bilan) barcha





materiallar berilishi mumkin: Loy o'rniga plastilin tavsiya qilindi. Bolalar o'z rasmlarini "Xalq ertaklari", "Odamlar mehnati", "Manzarali naqshlar", "Tabiat haqida" va shu kabi mavzuli papkalarga joylashtiriladi. Tasviriy faoliyat "zonasida" bolalar o'z ishlarida ijodiy foydalanadigan tabiiy materiallar solingan quti va ko'rgazmali qurollar bo'lishi kerak.

XULOSA

Tarbiyachi to'garakdagi mashg'ulotlarni shunday tashkil etishi lozimki, u har bir bolaning mustaqil ijod qilishga, mustaqil fikr yuritishga, vazifalarni mustaqil hal qilishiga yordam bersin. Guruhda emotsional vaziyat hosil qilishda texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati katta. Umuman, to'garak mashg'ulotlarida musiqadan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Shuning uchun har bir to'garak mashg'ulotlarida tarbiyachilarning bu masalaga alohida e'tibor berishlari olib borilayotgan ishlarning sifatini yanada yuqori bo'lishiga olib keladi.

Bolalarga badiiy-ijodiy qobiliyat ta'lim-tarbiya jarayonida rivolantirib boriladi. "Hamma bolalar, beistisno hammasi:- deb yozadi shoir P.Antokolskiy - san'atning biror sohasida talantli bo'lib tug'iladilar. Bolaning qobiliyatsizligi har doim tarbiyaning natijasidir. Aniqrog'i, tarbiyaning yo'qligi, bolaga g'amho'rlik qilinmaslikning natijasidir".

To'garakdagi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Ijodkorlik bolada maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur xususiyatlar, ya'ni ko'rib idrok etishni, xotirani, obrazli fikrlashni rivojlantirishga, qo'l mehnati ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Ijodiy faoliyat estetik didni shakllantiradi, go'zallikni his qilishga, uning rang-barangligini tushunishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. //O'zbekiston ovozi, 2016 yil, 8-dekabr.





4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2015.- 304 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.
6. “Ilk qadam” MTTning Davlat o'quv dasturi. – T., 2018.
7. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari”.- T., 2018.
8. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim atamalarining izohli lug'ati / tuzuvchilar: O.Musurmonova (va boshq.) – T.: Bekinmachoq-Plyus, 2011.- 260 b.
9. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta'lim” jurnali, 3-son, 2017, 2 bet.
10. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik. – T.: “Tafakkur bo'stoni”, 2013. – 288 b.
11. Sakulina N.P., Kamarova T.S. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat.- T., “O'qituvchi”, 1996.
12. Vetlugina N.A. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya.- T., “O'qituvchi”, 1997.
13. Xalezova N.B. va b. Bolalar bog'chasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash.- T.: O'qituvchi, 1991.- 192 b.

